

# TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI

**Tajiboyeva Odinaxon**

*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika psixologiya  
yo'nalishi 1- bosqich magistanti.*

**Xalimova Mashrabxon Vohidovna**

*Andijon davlat pedagogika instituti psixologiya fanlari doktori, professor*

**Annotatsiya:** talabalarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitish jarayonida boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligi o'rnatildi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, talaba, tanqidiy fikrlash, tarbiya fani, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar.

## KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha sohalarda tubdan o'zgarishlar bo'lmoqda. Buning asosiy sababi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning davlatimizda barcha sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu e'tiborning amaliy ahamiyatini sohalardagi o'zgarishlar orqali ko'rishimiz mumkin. Mana shu sohalardan biri ta'lim yo'nalishida ham Prezidentimiz tomonidan juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bu isloxoatlarning ko'rinishini quyidagi asoslarda uchratishimiz mumkin. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahriridagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda va boshqa qarorlarda o'z aksini topgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 5-moddasida ta'lim tashkilotlarida, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirish, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash haqidagi fikrlarni ta'minlash haqidagi fikrlar berilgan. Demak, mana shu qaror va qonunlar mazmunidan shuni tushunish mumkunki, yoshlarimizning ham ta'limiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlari muhim hisoblanadi. Ushbu qonunning 4 - moddasida quyidagi bandlari ham o'quvchilarining ma'naviy axloqiy jihatdan komil inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladigan fikrlar berilgan; - ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; -ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlar kabi asosiy prinsiplari ko'rsatib o'tilgan.

Tarbiya fani O'zbekiston respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lif muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e"tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta'lif jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lif samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lif vositalarining mavjudligiga, ta'lif jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

Farobiy ta'lif va tarbiya tushunchalariga birinchi ta'rif bergen pedagog olimdir: Ta'lif – so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyat, ishtajriba bilan amalga oshiriladi. Ta'lif-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur etish. Ushbu berilgan ta'rifni ayni vaqtida ham o'qituvchilarimiz amal qilsa bo'ladi. Talabani yaxshi bilim olishi uchun avval unga ilxomlantiruvchi so'zlar bilan murojaat qilishimiz va undan so'ng ilm o'rgatishimiz muhim hisoblanadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli axborotli o'qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda. O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlari va an'analari, ta'lif-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat bergenlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqli deb shunday kishiga aytildiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lif so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb- hunarga qiziqsalar,

shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar»

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlashga o'rgatish, bolaning muvaffaqiyatlarga erishishidagi asosiy omil bo'lib, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalar va didaktik o'yinlardan dars davomida oqilona xamda bolaning yosh, individual xususiyatlariga e'tibor bergen holda foydalanish kerak.

Ta'lism-tarbiya jarayonida barcha amalga oshirilayotgan ishlarning qanchalik darajada samarali bo'lishi, avvalambor, o'qituvchi va tarbiyachining kasbiy layoqati va tayyorgarligiga bog'liqdir. Tarbiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga singdirmoqchi bo'layotgan tushuncha yoki bilim, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish usul va metodlarini, avvalo, o'zi puxta egallagan bo'lishi hamda yuqori darajadagi fikr va tafakkur sifatlariga ega bo'lishi lozim. Bu xislatlar, albatta, muvaffaqiyatlarga erishish garovi bo'ladi. O'quvchilarda tafakkurni shakllantirish vazifasi barcha fanlar asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi qonuni hamda boshlang'ich ta'lism konsepsiyasida ta'kidlanganidek, o'quvchilarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'liming asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda

o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beruvchi qulay va o'yashga, fikr yuritishga kerak bo'lsa, o'z tanqidiy fikrini bermalol bildira oladigan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ishlab chiqilgan. Ushbu usullardan tarbiya fani darslarida samarali foydalanish, bugun tarbiya fani o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi va barcha pedagog xodimlar oldida turgan eng muhim vazifadir. Agar biz har qanday fikrlashni nazarda tutib, "tanqidiy fikrlash" atamasidan foydalansak, "tanqidiy" tushunchasiga hech qanday ehtiyoj qolmagan va shu tufayli biz bu atamani barcha o'ziga xos tomonlarini yo'qotgan bo'lar edik. "Taqidiy" (critikal) so'zi yunoncha so'z bo'lib, uning ma'nosi "qozi" (sudya) ni bildiradi va adabiyotga lotin tilidan kirib kelgan. Lug'atda uni "talabchan", "qattiqko'l", "injiq" iboralar sinonimi sifatida qo'llaniladi. Ko'pincha "tanqidiy" so'zi nimanidir yaxshi yoki yomon deb baholashda qo'llaniladi. Lekin masalaning bunday qo'yilishi tanqidiy fikrlashning asosiy qiymatini pasaytiradi va mohiyatini ochib bera olmaydi. Tanqidiy fikrlash ba'zi hollarda yo'naltirilgan fikrlash deb ham ataladi, chunki u kutilgan natijani olishga mo'ljallangan bo'ladi. Biz hech qanday aniq maqsad qo'y may shug'ullanadigan orzular, tushlar va fikrlash faoliyatining boshqa ko'rinishlari tanqidiy fikrlash toifalariga mansub emas.

Masalan, biz ertalab o'rindan turib, tishimizni yuvib, tanish yo'l bilan maktabga yoki ishga ketayotganimizda, bizning fikrlashimiz ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lsada, biz bajarayotgan xarakatlarni ongli baholashni deyarli nazarda tutmaydi. Bularning barchasi yo'naltirilmagan avtomatlashgan fikrlashga oid misollardir. Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi, e'tiborsiz bildirilgan fikrlarni, noaniq tushunchalarini va yolg'on argumentlarni fosh qilishidir. Lekin uning kamchiligi yaratuvchi va konstruktiv kuchga ega emasligidan iborat. Tanqidiy fikrlash g'oyamizni mustahkamlashga qodir, ammo konstruktiv, yaratuvchi fikr bilan ta'minlamaydi. Tanqidiy fikrlashni go'yoki motosiklning bir g'ildiragiga qiyoslash mumkin. Uni ijodiy darajagacha rivojlantirish-motosikldagi ikkinchi g'ildirak bo'lib xizmat qilishi uchun zarur. Misol uchun, suv alangani o'chiradi. Suv - bu suyuqlik. Benzin-bu suyuqlik. Shuning uchun benzin alangani o'chirishi kerak. Aqliy faoliyat-bu katta kuch, g'ayrat, irodani jamlash ko'pgina huzur-halovatdan voz kechishga o'zini majbur qila bilishni talab etadigan mehnat ekani haqida o'quvchida ishonch hosil bo'lish kerak. Tirishqoqlik, irodaviy kuch xuddi shunday mehnat muhitida shakl topadi. Erishilgan natjalarga tanqidiy qarashga o'rgangan, o'z ishidan qoniqmay, uni yaxshiroq bajarishga urinib ko'rgan bola hech qachon dangasa bo'lmaydi va o'z sohasida juda ko'p yutuqlarga erishadi.

## XULOSA

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar va didaktik o'yinlardan dars davomida oqilona foydalanish o'rini va

o'quvchi yosh hamda individual xususiyatlariga e'tibor bergan holda qo'llash kerak bo'ladi. Masalan: O'qituvchi "Noto'g'ri jumla" degan metoddan foydalanib, ularni qanday fikrlayotganini tekshirmoqchi, quyidagi jumlalarni o'qib beradi va o'quvchilarga diqqat bilan tinglab, qaysi jumla mantiqan to'g'ri emasligini topish vazifasi beriladi. "Bahor! Hammayoq yam-yashil maysalar bilan qoplagan. Daraxtlar oppoq gulga burkangan. Tabiatda juda katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Dalalarda dehqonlar esa hosillarni nes-nobutsiz yig'ishtirib olish uchun tinmay mehnat qilyaptilar." O'quvchilar mantiqan o'ylab, qaysi jumla noto'g'ri ekanligini topish bilan bir qatorda, nima uchun noto'g'ri ekanligini aytib berishlari kerakligi haqida o'qituvchi ma'lumot berib o'tadi. O'quvchilar tahlil qilayotganda analiz va sintez usullaridan foydalanib, o'zlarining mustaqil va ba'zi o'rnlarda tanqidiy fikrlarini umumlashtirib bayon etadilar. Shu bilan birgalikda bir-birlarining fikrini tinglashga, mantiqan o'ylashga o'rganadilar. Bu metodikani o'tkazishdan asosiy maqsad, bolalarni fikrlashga, diqqatini bir joyga toplashga va e'tiborli bo'lib, mantiqiy, tanqidiyfikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari tanqidiy fikrlashini shakllantirish deganda quyidagilarni tushunamiz:

1.O'qituvchi aralashuviziz mustaqil amalga oshirish uchun o'quvchining o'ziga bu faoliyatning alovida elementlarini bajarishni sekin-asta uzatish jarayoni, ya'ni axborot-motivasiya jarayoni (bunda gap boshlang'ich sinf o'quvchilari tanqidiy fikrlashini qanday qilib ko'proq oqilona shakllantirish, mustaqil bajarish uchun uning alovida elementlarini qanday izchillikda berish ustida boradi).

2.Bilimlarni o'zlashtirish darajasi haqidagi xabarni nazorat etish jarayonini yaxlit ta'lim sifatida shakllantirish.

3.O'quvchilarning erkin, mustaqil va individual ishlarini tashkil etish va boshqarish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz".
2. Shavkat Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash"
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.
4. A.Avloniy.Tanlangan asarlar.O.Sharafutdinov tahriri ostida.T-Ma'naviyat 2000.
5. Hodjiyev F.O. "O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" T-Nashriyot 2009.
6. Jumayev.M. vab.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T-2005 y.
- 7 .Artikova, M. (2021). DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS. InterConf..

8..Artikova, M. B. (2019). EXPERIENCE IN DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP SKILLS IN FOREIGN COUNTRIES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 250-255.

9. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.

10..Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.

11..Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.